



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar oyi
uchun dastlabki ma'lumot*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 129,1 mln. AQSH dollariga etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 155,0 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **129,1** +55,0 %

(2023- y.: **83,3**)



Saldo

2024- y.: **41,3** (2023- y.: **5,7**)



Eksport

2024- y.: **85,2** +91,5 %

(2023- y.: **44,5**)

TSA'dagi ulushi, %da



Import

2024- y.: **43,9** +13,1 %

(2023- y.: **38,8**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 85,2 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 91,5 % ga ko‘paydi) va import hajmi 43,9 mln. AQSH dollariga (13,1 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida 41,3 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.



NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar, mln. AQSH dollari)

<p>Fransiya</p> <p>TSA – 65,2</p> <p>Eksport: 65,0 Import: 0,2</p> <p> 50,5 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 18,8</p> <p>Eksport: 4,0 Import: 14,8</p> <p> 14,6 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 14,9</p> <p>Eksport: 0,4 Import: 14,5</p> <p> 11,5 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 7,5</p> <p>Eksport: 5,5 Import: 2,0</p> <p> 5,8 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 3,5</p> <p>Eksport: 0,9 Import: 2,6</p> <p> 2,7 %</p>
<p>Daniya</p> <p>TSA – 2,3</p> <p>Eksport: 2,3 Import: -</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 2,2</p> <p>Eksport: 2,2 Import: -</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 2,1</p> <p>Eksport: - Import: 2,1</p> <p> 1,6 %</p>	<p>Yaponiya</p> <p>TSA – 1,7</p> <p>Eksport: - Import: 1,7</p> <p> 1,4 %</p>	<p>Latviya</p> <p>TSA – 1,4</p> <p>Eksport: - Import: 1,4</p> <p> 1,1 %</p>

Navoiy viloyati jahonning 43 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (50,5 %), Rossiyada (14,6 %), XXRda (11,5 %), Turkiyada (5,8 %) va Qozog‘istonda (2,7 %) qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Fransiya	0,5	31,7	65,2
 <i>Eksport</i>	-	31,5	65,0
<i>Import</i>	0,5	0,2	0,2
Rossiya	32,1	7,5	18,8
 <i>Eksport</i>	19,7	4,3	4,0
<i>Import</i>	12,4	3,2	14,8
XXR	14,2	11,7	14,9
 <i>Eksport</i>	-	0,1	0,4
<i>Import</i>	14,2	11,6	14,5
Turkiya	3,3	4,2	7,5
 <i>Eksport</i>	1,8	1,8	5,5
<i>Import</i>	1,5	2,4	2,0
Qozog'iston	12,1	9,3	3,5
 <i>Eksport</i>	1,1	1,4	0,9
<i>Import</i>	11,0	7,9	2,6
Daniya	-	0,7	2,3
 <i>Eksport</i>	-	-	2,3
<i>Import</i>	-	0,7	-
Afg'oniston	1,1	1,7	2,2
 <i>Eksport</i>	1,1	1,7	2,2
<i>Import</i>	-	-	-
Germaniya	0,7	0,7	2,1
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,7	0,7	2,1
Yaponiya	0,2	-	1,7
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,2	-	1,7
Latviya	0,1	-	1,4
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,1	-	1,4

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Eron	2,2	0,5	1,3
 <i>Eksport</i>	-	0,3	1,3
<i>Import</i>	2,2	0,2	-
Turkmaniston	1,3	-	1,3
 <i>Eksport</i>	0,9	-	1,1
<i>Import</i>	0,4	-	0,2
Estoniya	-	1,8	1,2
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	1,8	1,2
Qirg'iz Respublikasi	0,8	1,8	1,1
 <i>Eksport</i>	0,8	1,5	1,0
<i>Import</i>	-	0,3	0,1
Koreya Respublikasi	1,6	0,4	0,9
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,6	0,4	0,9
Litva	1,0	0,8	0,7
 <i>Eksport</i>	0,5	0,3	0,4
<i>Import</i>	0,5	0,5	0,3
Shveysariya	-	-	0,6
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	0,6
Tojikiston	0,3	0,4	0,5
 <i>Eksport</i>	0,3	0,4	0,5
<i>Import</i>	-	-	-
Hindiston	3,0	1,9	0,4
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	3,0	1,9	0,4
Italiya	0,2	0,1	0,2
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,2	0,1	0,2



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar, ming AQSH doll.)*



2023- y.


2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 63,8 % ulush bilan 82 384,9 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Konimex tumani 0,01 % ulush bilan 19,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



NAVOIY VILOYATININGTASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 19,6 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 27,7 % ga ko'paydi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning mos davriga nisbatan 63,5 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 80,4 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar holatiga ko'ra, 25,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 7,7 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 17,6 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar, ulushi, % da)



Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (14,6 %), Qozog'iston (2,7 %) hamda Turkmaniston (1,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 23,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 6,1 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 17,4 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Belarus) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 85,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 91,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar ulushi % da)



Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	44,5	85,2	165,2	191,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,0	2,6	2,7 m.	87,4	6,8	3,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,2	1,9	1,0	10,4 m.	0,4	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,0	2,4	-	2,3 m.	2,3	2,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,2	-	-	-	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	32,7	66,2	39,0 m.	2,0 m.	73,6	77,7
Sanoat tovarlari	6,3	10,2	117,2	163,3	14,0	12,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,2	-	-	-	0,4	-
Turli xil tayyor buyumlar	1,0	1,6	86,3	160,0	2,3	1,9
Xizmatlar	0,1	0,1	7,8	93,9	0,2	0,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (77,7 %), sanoat tovarlari (12,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,1 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar)


 <p align="center">XSST bo'limi nomi</p>	<p align="center">Ming AQSH dollari</p>	<p align="center">2023- yilning mos davriga nisbatan, % da</p>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2657,6	87,4
Sabzavotlar va mevalar	631,2	46,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1911,2	115,2
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	115,2	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1867,5	10,4 m.
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	788,5	5,9 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1044,8	70,9
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	34,2	4,2 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2399,9	2,3 m.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2399,9	2,3 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	210,8	-
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	210,8	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	66183,1	2,0 m.
Noorganik kimyo moddalari	65117,1	2,1 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	877,1	74,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	9,2	-
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	128,8	128,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	50,9	-

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	10192,9	163,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	8849,4	167,2
Rangli metallar	853,9	2,4 m.
Cho'yan va po'lat	48,2	77,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	407,3	102,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1,5	1,1
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,0	39,1
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	30,6	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	1624,1	160,0
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1492,3	173,1
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	131,8	86,4
Xizmatlar	70,3	93,9
Moliyaviy xizmatlar	51,2	124,6
Transport xizmatlari	10,2	57,8
Safarlar	8,9	55,1

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar oyida MDH mamlakatlarga 7,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 9,0 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Turkiya, Rossiya, Daniya, Afg'oniston, Eron va Turkmaniston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 95,5 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'ri
	2023 y.	2024 y.		
Fransiya	31 461,6	64 986,4	2,1 m.	1
Turkiya	1 843,6	5 515,2	3,0 m.	2
Rossiya	4 270,5	4 044,7	94,7	3
Daniya	-	2 329,0	-	4
Afg'oniston	1 659,0	2 237,2	134,9	5
Eron	250,2	1 268,1	5,1 m.	6
Turkmaniston	0,1	1 044,1	8352,8 m.	7
Qirg'iz Respublikasi	1 494,9	1 034,7	69,2	8
Qozog'iston	1 363,4	926,6	68,0	9
Tojikiston	368,5	453,9	123,2	10
Xitoy Xalq Respublikasi	74,2	423,1	5,7 m.	11
Litva	281,5	360,3	128,0	12
AQSh	0,5	139,9	292,1 m.	13
Belarus	851,4	92,7	10,9	14
BAA	12,6	84,4	6,7 m.	15
Ukraina	0,3	54,3	181,0 m.	16
Misr	-	53,4	-	17
Polsha	188,6	50,4	26,7	18
Ozarbajjon	13,4	34,7	2,6 m.	19
Gruziya	-	26,4	-	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar, ming AQSH doll.)*



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 78,4 % bilan 66 832,1 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Konimex tumani 0,01 % bilan 9,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar oyida 1 273,5 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 81,2 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (70,2 %) hamda Xitoy Xalq Respublikasi (22,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 631,2 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 53,6 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Pomidor</p> <p>123,3 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>168,5 <i>tonna</i></p> <p> 44,2 % ↓</p>	<p>Piyoz</p> <p>86,2 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>311,5 <i>tonna</i></p> <p> 1436,2 m. ↑</p>	<p>Uzum</p> <p>76,8 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>65,9 <i>tonna</i></p> <p> 29,3 % ↓</p>	<p>Yong'oklar</p> <p>76,2 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>76,5 <i>tonna</i></p> <p> 92,4 % ↓</p>
<p>Karam</p> <p>60,7 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>195,0 <i>tonna</i></p> <p> 132,5 % ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>43,0 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>56,6 <i>tonna</i></p> <p> 118,5 % ↑</p>	<p>Sitrus mevalar</p> <p>7,2 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>6,4 <i>tonna</i></p> <p> 58,2 % ↓</p>	<p>Lavlagi</p> <p>4,3 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>18,1 <i>tonna</i></p> <p> 334,2 m. ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	951,6	442,1	70,0
 Xitoy Xalq Respublikasi	127,5	141,5	22,4
 Latviya	86,6	19,9	3,2
 Estoniya	64,9	16,3	2,6
 Litva	42,9	11,4	1,8

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 70,2 % ni), bu ko'rsatkich Xitoy Xalq Respublikasiga eksport hajmidan 3,1 barobar ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar oyi yakuni bo‘yicha 2 701,1 ming AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 3,2 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 69,9 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (54,9 %), sintetik, jut tolalar (13,2 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 5 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI


(2024- yil yanvar, ming AQSH dollari)



Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar, ming AQSH doll.)



 Xizmatlar eksporti hajmi 70,3 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 93,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (72,8 %), transport xizmatlari (14,5 %) va safarlar (turizm xizmatlari) (12,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar oyida import hajmi 43,9 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (42,4 %), sanoat tovarlari (25,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (22,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi 43,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,5 mln. AQSH dollariga etdi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	38,8	43,9	74,6	113,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,2	1,8	136,8	80,0	5,8	4,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,9	0,7	148,1	72,4	2,3	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,1	2,0	154,2	0,2	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,3	324,4 m.	3,4 m.	0,3	0,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,4	9,9	121,0	185,5	13,8	22,6
Sanoat tovarlari	11,2	11,0	87,4	98,4	28,9	25,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	16,2	18,6	73,6	114,5	41,8	42,4
Turli xil tayyor buyumlar	0,9	1,0	21,0	105,1	2,4	2,2
Xizmatlar	1,8	0,5	129,4	25,5	4,5	1,0



XSSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar)

XSSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 784,8	80,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 617,0	90,1
Kofe, choy, kakao,ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	60,5	70,4
Sabzavotlar va mevalar	42,0	48,7
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	30,3	-
Tirik hayvonlar	35,0	13,3
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	652,5	72,4
Probka va yog'och-taxtalar	98,4	59,5
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	85,8	381,3 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	119,0	-
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	346,0	47,6
Tabiiy kauchuk	3,3	41,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	145,0	154,2
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	145,0	154,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	329,0	3,4 m.
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	328,3	3,8 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,7	6,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	9 921,0	185,5
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	49,2	45,7 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 109,5	98,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6 367,6	3,2 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	61,7	13,8
Noorganik kimyo moddalari	1 352,4	2,6 m.
Organik kimyo moddalari	575,0	3,1 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	297,3	27,8
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	108,3	294,1 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	11 037,3	98,4
Cho'yan va po'lat	938,1	3,4 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	695,5	143,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	397,5	7,4 m.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 494,1	44,1
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	34,8	46,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	299,0	4,5 m.
Rangli metallar	7 178,3	104,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	18 589,8	114,5
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) <i>shu jumladan:</i>	2 757,7	98,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	4 726,9	64,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	6 129,6	2,6 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	909,5	40,7
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	2 032,1	5,1 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	1 649,3	18,8 m.
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	17,8	2,9
Metallarni qayta ishlash mashinalari	366,9	89,5
Turli xil tayyor buyumlar	972,0	105,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	718,3	113,1
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	242,1	14,9 m.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5,7	2,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	0,6	11,6
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,4	-
Poyabzal	4,9	-
Xizmatlar	446,6	25,5
Transport xizmatlari	234,4	15,9
Safarlar (turizm xizmatlari)	1,1	130,0
Boshqa xizmatlar	211,1	75,3

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar oyi natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 40,2 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 53,7 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



 2024- yil yanvar oyida Navoiy viloyati 29 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Germaniya, Turkiya Yaponiya va Latviya) jami importning 89,2 % ini tashkil qiladi, bu 39,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2023 y.	2024 y.		
Rossiya	3 184,7	14 767,1	4,6 m.	1
Xitoy Xalq Respublikasi	11 634,1	14 463,1	124,3	2
Qozog'iston	7 923,5	2 613,9	33,0	3
Germaniya	736,2	2 120,2	2,9 m.	4
Turkiya	2 428,9	1 957,6	80,6	5
Yaponiya	3,0	1 747,9	582,6 m.	6
Latviya	7,7	1 405,4	181,8 m.	7
Estoniya	1 815,6	1 148,8	63,3	8
Koreya Respublikasi	447,2	937,6	2,1 m.	9
Shveysariya	-	591,5	-	10
Hindiston	1 909,6	408,3	21,4	11
Litva	497,4	342,1	68,8	12
Fransiya	236,9	228,6	96,5	13
Turkmaniston	-	223,6	-	14
Italiya	67,8	217,8	3,2 m.	15
Chexiya	1 526,3	217,4	14,2	16
Gonkong	195,5	152,2	77,9	17
Meksika	-	60,0	-	18
Singapur	-	53,8	-	19
Eron	227,2	51,5	22,7	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar, ming AQSH doll.)



2023- y.


2024- y.

Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani 47,3 % bilan 20 755,7 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Konimex tumani 0,02 % bilan 9,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar, ming AQSH dollarida)




2024- yil yanvar oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 446,6 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,5 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (52,5 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,3 %) va boshqa xizmatlar (47,2 %) dan iborat bo'ldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 11 037,3 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,4 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 25,2 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar)



2024- yil yanvar oyida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Rossiya 7 223,0 ming AQSH dollari (65,4 %), Latviya 1 189,9 ming AQSH dollari (10,8 %) va Xitoy Xalq Respublikasi 1 160,8 ming AQSH dollari (10,5 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.